

TARIX FANINI O'QITISHDA KINOFILMLAR VA HUJJATLI FILMLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI

MAXMATKULOVA NOZIKOY CHORIYEVNA

Termiz davlat pedagogika instituti

"Tarix" kafedrası o'qituvchisi

Email: nozik899@gmail.com

Tel: +998 91966-02-55

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17285780>

Annotatsiya: Tarixni o'qitish faktlar va sanalarni yodlashdan ko'proq narsani o'z ichiga oladi. Shuningdek, talabalarda tanqidiy fikrlash, xronologik fikrlash va madaniyatlararo tushunish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, xususan, badiiy va hujjatli filmlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada fanini o'qitishda kinofilmlar va hujjatli filmlardan foydalanishning pedagogik va amaliy afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, filmlar orqali tarixiy faktlarni chuqurroq anglash, darsning samaradorligini oshirish hamda tarixiy tafakkurni shakllantirish imkoniyatlari tahlil etilgan. Amaliy misollar va ilmiy yondashuvlar asosida kinomateriallarning o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi samarali uslub sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: filmlar, tanqidiy fikrlash, bag'rikenglik va global fikrlash, tanqidiy yondashuv, hissiy ta'sir, ta'lim samaradorligi, tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot, interaktiv va samarali natija.

ПРЕИМУЩЕСТВА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ФИЛЬМОВ И ДОКУМЕНТАЛЬНЫХ МАТЕРИАЛОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ

Аннотация: Преподавание истории – это не просто запоминание фактов и дат. Оно также предполагает развитие у учащихся таких важных навыков, как критическое мышление, хронологическое мышление и межкультурное взаимопонимание. Использование современных образовательных технологий, в частности художественных и документальных фильмов, играет в этом процессе важную роль. В статье рассматриваются педагогические и практические преимущества использования фильмов и документальных фильмов в преподавании предмета. Анализируются возможности использования фильмов для углубления понимания исторических фактов, повышения эффективности урока и формирования исторического мышления. Интеграция киноматериалов в образовательный процесс обосновывается как эффективный метод, основанный на практических примерах и научных подходах.

Ключевые слова: фильмы, критическое мышление, толерантность и глобальное мышление, критический подход, эмоциональное воздействие, образовательная эффективность, критическое мышление, межкультурная коммуникация, интерактивный и эффективный результат.

ADVANTAGES OF USING MOVIES AND DOCUMENTARIES IN TEACHING HISTORY

Abstract: Teaching history involves more than just memorizing facts and dates. It also involves developing important skills in students such as critical thinking, chronological thinking, and intercultural understanding. The use of modern educational technologies, in particular feature films and documentaries, is important in this process. This article highlights the pedagogical and practical advantages of using films and documentaries in teaching the subject. It also analyzes the possibilities of using films to deepen understanding of historical facts, increase the effectiveness of the lesson, and form historical thinking. The integration of film materials into the educational process is justified as an effective method based on practical examples and scientific approaches.

Keywords: films, critical thinking, tolerance and global thinking, critical approach, emotional impact, educational effectiveness, critical thinking, intercultural communication, interactive and effective outcome.

KIRISH

Har doim o'zgarib va rivojlanib borayotgan dunyomizda ta'lim muassasalarida o'qitish tizimi ham takomillashib bormoqda. Turli sohalaridagi innovatsion yondashuvlar ta'lim jarayonida ham yaqqol namoyon bo'lib, o'qituvchilar ushbu yondashuvlarga moslashib borishmoqda. Vaqt o'tishi bilan taraqqiyot va yangilanishlar natijasida o'qitish usullari hamda qo'llaniladigan materiallarda o'zgarishlar yuz beradi va usullar farqlanadi.

ASOSIY QISM

Tarix darslarida kinofilm va hujjatli filmlardan foydalanish juda muhim, biroq hozirda bu imkoniyatlar cheklangan (xususan, hujjatli filmlarni arxivdan olishda muammolar mavjud). Ko'pincha tarix darslarida o'quvchilar faqat darsni tinglaydilar, zarurat bo'lmasa gapirmaydilar, savol bermaydilar, faqat berilgan savollarga javob berishga harakat qiladilar. Buning natijasida ular faqat eslab qolishga intiladigan shaxslarga aylanib boradi.

Darslarda kinofilmlar va hujjatli filmlardan foydalanish orqali esa o'quvchilar kuzatish, xulosa chiqarish, kuzatuv natijasida fikr bildirish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shuningdek, ular qiziquvchan, tanqidiy fikrlashni yoqtiradigan, tarixga savollar bera oladigan va urushlardan tashqari hayotni (turmush tarzi, madaniyat, kiyim-kechak, iqtisod va h.k.) o'rganadigan shaxslar sifatida shakllanadi. Ushbu usul ommalashsa, tarixni o'qitishda an'anaviy usullardan asta-sekin voz kechib, darslarni yangi metodlar bilan boyitish imkoniyati yuzaga chiqadi.

An'anaviy o'qitish usuli esa hanuz respublikamizning ko'plab oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilmoqda. Talabalarni ma'ruza tinglashdan zerikib qolishdan qutqarish uchun darslarni muhokama qilish, savol-javoblar o'tkazish, misollar keltirish va hatto tarixda yashayotgandek taassurot beradigan filmlar ko'rsatish orqali yanada qiziqarli qilish mumkin. Faqat shunday yondashuv bilangina mustaqil fikrlaydigan, savol bera oladigan va izlanishga qodir shaxslarni tarbiyalash imkoniyati kuchayadi.

Zamonaviy ta'lim yondashuviga ko'ra, talabalar o'rganish jarayonida o'zlarini faol ishtirokchi sifatida his qilishlari kerak. Shunday sharoitda muvaffaqiyatni faqat imtihon natijalari orqali emas, balki butun jarayon davomida talabaning rivojlanishini kuzatish orqali baholash mumkin bo'ladi. Tarix darslarida bilim olishni samarali tashkil etish uchun yangi o'qitish usullarini qo'llab-quvvatlovchi vositalar, ayniqsa ko'rgazmali qurollar muhim ahamiyatga ega. Chunki darslikning o'zi yetarli bo'lmasligi mumkin.

Talabalarga tarixiy voqealarda o'zlarini ishtirokchidek his qilishlariga imkon beradigan motivatsiya berilishi zarur [1, 2]. Ularni faol bo'lishga, bir nechta sezgi organlari orqali o'rganishga va turli materiallardan foydalanishga undash kerak. Talabalar dars jarayonida harakatga keltirilishi, o'zlashtirish va ma'lumotni taqdim etish tajribasi orqali faol bo'lishi hamda kerakli materialdan to'g'ri foydalanishni o'rganishi lozim. Ushbu jarayon kinofilmlar va hujjatli filmlardan foydalanish usulini qo'llash orqali yanada samarali kechadi.

Kinofilmlar tarixiy voqealarni real tasvirlash imkonini beradi. Aniq tarixiy filmlar va hujjatli tasvirlar orqali o'quvchi voqealarni tasavvur qilish emas, balki bevosita "kuzatish" jarayoniga kirishadi va o'zini film qahramonlari safida his qila boshlaydi. Bu esa ta'limda vizual ta'sirni kuchaytiradi hamda mavzuni tushunishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Asosan kinofilm va hujjatli filmlardan ma'ruza darslari va mustaqil ish topshiriqlarida foydalanish samarali natija beradi. Oliy ta'lim muassasalarida tarix ta'lim yo'nalishi talabalariga mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy usullardan tashqari mavzuga oid badiiy va hujjatli filmlarni namoyish etish bugungi ta'limning faol qismi sifatida tan olinib bormoqda.

Ma'ruza darslarida ma'ruzachi rejalarni ishlab chiqadi, reglamentni taqsimlaydi, "Microsoft PowerPoint" dasturida tayyorlangan slaydlarga to'plangan ma'lumotlarni joylashtiradi. Aksariyat hollarda ma'ruzachilar slayddan foydalanadilar. Slaydlarda mavzuga oid jadvallar, diagrammalar, xaritalar, rasmlar bilan bir qatorda videolar ham qo'shilishi mumkin. Agar slaydga mavzuga oid kinofilm yoki hujjatli film parchalari joylansa, ma'ruzaning qiymati sezilarli darajada oshadi. Videolar odatda kichik formatda, mavzuga oid zarur qismi kesib olinib joylanadi. Ularni qirqib olishda "Camtasia Studio 8", "Bandicam", "Vegas Pro", "Edius Pro", "Video Editing" kabi videomontaj dasturlaridan foydalanish mumkin.

Bu usul ta'lim jarayonini qiziqarli va interfaol bo'lishiga yordam beradi. Filmlar dars jarayonini odatiy nazariy muhokamadan chiqarib, yanada jonli va qiziqarli o'tkazish imkonini beradi. Bu esa o'quvchilarda fanga qiziqish uyg'otadi. Guruhdagi tarix faniga qiziqishi kuchli bo'lmagan talabalar ham bunday mashg'ulotlarda osonlik bilan munozaraga qo'shilib ketadilar. Shu tariqa o'quvchida berilgan topshiriqqa favqulodda fikr bildirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Kinofilmlar hayot voqeligini badiiy tarzda aks ettirgani bois, o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi va ularni mulohaza qilishga undaydi. Ta'lim jarayonida turli millat, din va madaniyat vakillarining hayoti, urf-odatlar, turmush tarzi aks ettirilgan filmlarni ko'rsatish o'quvchilarda bag'rikenglik va hurmat tuyg'usini shakllantiradi.

Filmlar emotsional ta'sir orqali tarixiy xotirani mustahkamlaydi. Xitoy faylasufi, konfutsiychilik asoschisi va siyosiy arbob Konfutsiy: "Eshitdim – unutdim, ko'rdim – eslab qoldim, bajardim – tushundim", deya ta'kidlaganidek, eslab qolish uchun ko'rish juda muhim. Shuningdek, filmlar orqali taqdim etilgan voqealar, qahramonlar va tarixiy shaxslarning obrazlari o'quvchining xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Bu esa ta'lim samaradorligini yanada oshiradi [2].

Bundan tashqari, mazkur usul tanqidiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarixiy filmlar orqali voqealarga nisbatan munosabat bildirish, tahlil qilish, manbalarni taqqoslash kabi o'quv vazifalarini bajarish mumkin. Kinofilm va hujjatli filmlar tahlili jarayonida talabalar munozaraga kirishadilar, fikrlar xilma-xilligi yuzaga keladi. Shu bilan

birga, odatda passiv bo'lib kelgan talabalar ham ko'rgan videolari haqida fikr bildirishga urinadilar. Natijada Konfutsiyning "Bajardim – tushundim" degan hikmati amalda o'z tasdig'ini topadi.

Kinofilmlar va hujjatli filmlarni darslarda qo'llash madaniyatlararo muloqotni rivojlantiradi. Globallashuv jarayoni jamiyatlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni kuchaytirmoqda. Shu bois ta'limda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Bu jarayonda kinofilm va hujjatli filmlar nafaqat ma'lumot manbai, balki insonlarning his-tuyg'ularini, qarashlarini, madaniy farqlarni anglash va o'tmish xotiralarini yodga olish vositasi sifatida ham xizmat qiladi [3, 77-83].

Kinofilm va hujjatli filmlar orqali turli millat va madaniyatlarning farqlari bilan bir qatorda ularning umumiy jihatlari ham namoyon bo'ladi. Bu esa madaniyatlararo muloqot uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida filmlardan foydalanish orqali o'quvchilarda madaniy farqlarni anglash va ularga hurmat bilan yondashish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Ayniqsa, Jahon tarixi, etnologiya, xalqaro munosabatlar kabi mutaxassislik fanlarini o'qitishda ushbu usul kutilgan natijani beradi. Shuningdek, mutaxassislik fanlarini o'qitish jarayonida talabalar orasida boshqa tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ham ortadi. Bugungi globallashuv sharoitida bir nechta tillarni bilish har bir mutaxassis uchun zaruriy jihatlardan biri hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida nafaqat chet tili yo'nalishida, balki boshqa ko'plab yo'nalishlarda ham talabalar chet tillarini o'rganishga intilmoqdalar. Bu holat, albatta, yoshlarning kelajakda intellektual salohiyatli kadrlar bo'lib yetishishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kinofilmlar va hujjatli filmlar ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, bag'rikenglikni rivojlantirish, mulohaza yuritish va tahlil qilish qobiliyatini kuchaytirish uchun ham samarali vosita hisoblanadi. Zamonaviy ta'limda bunday usullardan keng foydalanish yosh avlodni dunyodagi madaniy xilma-xillikni anglay oladigan, ochiq fikrli va tolerant shaxs sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi [4, 271-288].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kinofilm va hujjatli filmlardan foydalanish tarix fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonining vizual, interaktiv va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, muallimlar filmlarni tanlashda tanqidiy yondashib, ularni o'quv maqsadlariga moslashtirishlari lozim.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Çoban Z. Tarih derslerinde tarihi film ve dizilerin kullanimina ilişkin öğretmen ve öğrenci görüşleri. – Trabzon, 2011. – S. 2.
2. Дармилова С. В. Использование художественных фильмов в процессе формирования межкультурной и коммуникативной компетенции в вузе // Вестник Адыгейского государственного университета. Серия 3: Педагогика и психология. 2009. № 3. <http://cyberleninka.ru/article/n/ispolzovanie-hudozhestvennyh-filmov-v-protsesse-formirovaniya-mezhkulturnoy-i-kommunikativnoy-kompetentsii-v-vuze>



3. Писаренко В. И. Педагогический алгоритм работы с видеоматериалами // Перспективные информационные технологии и интеллектуальные системы. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 2003. Вып. 1 (13). – С. 77-83.
4. Stoddard J. D. Film as a “thoughtful” medium for teaching history // Learning, Media and Technology. 2012. Vol. 37, № 3. – P. 271–288. DOI: <http://dx.doi.org/10.1080/17439884.2011.572976>